

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

BABANAZAROVA GULRUH YUNUSOVNA

**O‘ZBEK BAXSHICHILIK SAN’ATIDA IJROCHILIK XUSUSIYATLARI
(Qashqadaryo baxshichilik maktabi misolida)**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya aftoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on art history**

Babanazarova Gulruh Yunusovna

О‘zbek baxshichilik san’atida ijrochilik xususiyatlari: (Qashqadaryo baxshichilik maktabi misolida) 3

Бабаназарова Гулрух Юнусовна

Вопросы интерпретации узбекского искусства бахши:
(на примере Кашкадарьинской школы бахши) 21

Babanazarova Gulrukh Yunusovna

Questions of interpretation of Uzbek art of Bakhshi:
(on the example of Kashkadarya school of bakhshi)..... 42

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 46

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

BABANAZAROVA GULRUH YUNUSOVNA

**O‘ZBEK BAXSHICHILIK SAN’ATIDA IJROCHILIK XUSUSIYATLARI
(Qashqadaryo baxshichilik maktabi misolida)**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/San88 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning (www.konservatory.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Rustambek Samigovich
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Ganixanova Shoyista Sharafutdinovna
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Shodmonov Nafas Namozovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.27.09.2024.San.54.01 raqamli kengashning 2025-yil “__” _____ kuni soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-pochta: info@konservatoriya.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-pochta: info@konservatoriya.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “__” _____dagi ____ raqamli bayonnoma)

T.B.G‘ofurbekov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

B.Sh.Ashurov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.B.Qosimxo‘jayeva

Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon musiqa madaniyatida asrlar osha shakllangan milliy an'analarni qayta tiklash, avaylab-asrash va targ'ib etishda ajdodlarimiz tomonidan meros bo'lib saqlanib kelinayotgan baxshichilik san'ati alohida o'rin egallaydi. Ana shu merosning o'z ildizlarini tashkil etuvchi dostonchilik ijodiyoti benazir qadriyat sifatida jahon badiiy va musiqa ahli tomonidan e'tirof etilmoqda. Xalq episi bo'lmish dostonlar hozirgi kunga qadar asosan tarixiy-etnografik va filologik jihatidan, adabiyotshunoslik sohasidagi mezonlar va me'yorlar tufayli tahlillangan bo'lib, buning zaminida musiqa ijrochilik san'atiga doir masalalar ma'lum darajada o'z aksini ham topgan, lekin kam o'rganilgan. Shu bois og'zaki xalq ijodi va musiqa san'ati uyg'unligida yuzaga kelgan dostonchilik ijodiyoti va baxshichilik san'atini taraqqiy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo musiqa ilmida milliy badiiy merosimizni ilmiy-tarixiy, musiqiy-nazariy va madaniy-ma'rifiy jihatlarini tadqiq etish, xalq epik asarlarini ijod va ijro bo'yicha o'rganish milliy musiqashunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, lokal baxshichilik maktablari taraqqiyoti, doston yaratuvchi va saqlovchi namoyandalari uslub-usullarini o'ziga xosligini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Qashqadaryo xalq epik musiqa ijodiyoti, uning dostonchilik janrlar tarkibi, baxshichilik ijro uslublari hamda musiqiy ijod-ijro qonuniyatlari kam o'rganilgan bo'lganligi sababli musiqa ilmi sohasida maxsus ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etmoqda.

Yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirishga va ayniqsa dostonchilik maktablari, ustoz-shogird merosini qayta tiklashga so'nggi yillarda juda ko'p ahamiyat berilmoqda. "Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi – folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi"¹. Shunga ko'ra, Qashqadaryo ham azal-azaldan xalq ichidagi qahramonlarni dostonlarda ko'rsatib berish va ularning mazmun-mohiyatini avlodlarga yetkazib berishda aynan dostonchilik san'atiga tayanishini, bu esa masalaning dolzarbligini talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son farmoni, 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son, 2018-yil 26-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3920-son, 2018-yil 1-noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish

¹ "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son qarori bilan tasdiqlangan.

to'g'risida"gi PQ-3990-son, 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarorlari Qashqadaryo baxshichilik san'atining ijrochilik xususiyatlari va maktab an'alarini rivojlanish va o'rganish yo'lida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda dostonlar xilma-xilligi va murakkablik xususiyati nafaqat janr va mavzu nuqtayi nazaridan o'rganilgan, balki an'ana va qadriyatlarga bo'lgan munosabati va real mohiyatini to'liq tushunib anglab yetish bilan belgilanardi.

XX asrning 30–60-yillarida "Komsomolka Oyto'ti", "Ochil dov", "Dastagul", "Amir qochdi", "Qoraqum" nomli dostonlar ko'plab zamonasoz (SSSR, partiya, kommunizm, Lenin haqidagi) terma topshirig'i asosida yozib olingan.

Ammo bu olimlarimizning aybi emas, balki bu majburiyati bo'lgan. Baxshilar ijodi matbuotda yoritilmas edi. Biz buni birgina Qodir baxshi misolida 18 yil ko'rganmiz. Folklorshunos Abdiolim Ergashev so'zlariga ko'ra, yozib olgan an'anaviy dostonlar va termalardan namunalarni na tuman, na viloyat, na respublika matbuotida chop ettira olishmagan².

Mustaqillik davridagi Janubiy O'zbekistonning dostonchilik san'ati va baxshi ijodining asosiy tendensiyalari hali tadqiqot muammosi sifatida alohida mustaqil ravishda ko'rib chiqilmagan edi. Jahonning taniqli sharqshunos, adabiyotshunos, folklorshunos olimlari V.Jirmunskiy, V.Bartold, A.Veselovskiy, A.Lord, K.Rayxl, M.Auezov, M.Hamroyev, Y.Ismoilov, Y.Tursunov, V.Vinogradov, I.Valixanov, Q.Maqqetov, Q.Rahmatullin, Sh.Gulliev, K.Rahimov va boshqalarning tadqiqotlarida epik janrni yozib olish, ularni tarixiy-nazariy va she'riy asoslari ilmiy o'rganilgan³.

Markaziy Osiyo xalqlarining dostonchilik ijodiyoti X.Zarifov, M.Murodov, T.Mirzayev, M.Saidov, B.Sarimsoqov, T.Bakchiyev va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topdi, ularda eposning tarixiy taqdiri, uning ijtimoiy-

² Rahimov Qahhor baxshi. Otam haqida doston. – Qarshi: 2019.; Abduolim Ergashevning "Otaga hayratdan yaralgan doston" maqolasidan. 124–146-betlar.

³ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: 1947.; Хамраев М.К. Очерки теории тюркского стиха. – Алма-ата: "Мектеп", 1969. – 102 стр.; Максетов К.М. Очерки по истории каракалпакского фольклора. Ташкент: 1977. – 232 стр.; Лорд А.Б. Сказитель. Пер. с англ. и коммент. Ю.А.Крейнера и Г.А.Клейнера. – Москва: 1994. 368 стр.; Гуллыев Ш. Искусство туркменских бахши. (Основы муз.-поэт. строения). Под. ред. Ф.М.Караматова. – Ашхабад: 1985., - 259 стр.; Виноградов В.С. Киргизская народная музыка. – Фрунзе: "Киргизгосиздат", 1958. – 334 стр.; Tursunov S., Pardayev T., Tursunova N., Murtazoyev B. O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. – Toshkent: 2015.

siyosiy, tarixiy voqelikka munosabati, kompozitsion tuzilishi, she'riy shakllari hamda baxshichilik san'atiga xos an'analari ilmiy tadqiqot ishlarida bayon etilgan. I.Zemsovskiy, V.Vinogradov, F.Karomatli, Sh.Gulliev, T.Adambayeva, R.Abdullayev, A.Azimova, R.Amanova, B.Matyoqubov, Sh.Berdixanova⁴ kabi musiqashunoslarning ishlarida Markaziy Osiyo xalqlari xalq eposining mavqeyi, janrlar tarkibi, musiqiy-she'riy qonuniyatlari, musiqiy lokal tili, ijrochilik san'ati masalalariga muayyan e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy va jahon musiqa san'atida professional kadrlar tayyorlashning ilmiy-ijodiy tamoyillari" mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiya ishi dostonchilik ijodiyotining mavqeyi, aynan Qashqadaryo dostonchilik maktablarini aniqlab, o'rganish, tadqiq etish, uning o'ziga xos baxshichilik san'atini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Qashqadaryo baxshichilik san'ati namoyandalari ijodi va ijrochilik uslublari asosida o'zbek dostonchilik ijodiyoti va baxshichilik san'ati, lokal maktablarining shakllanishi va rivoj olishini nazariy jihatdan tahlil qilish;

- Surxondaryo va Qashqadaryo maktabining farqini ko'rsatib berish;

- Qashqadaryo baxshichilik maktabining ijod va ijro an'alarini yoritib berish;

- Qashqadaryo baxshichilik san'atining o'ziga xosligini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek dostonchilik va baxshichilik san'atida Qashqadaryo ijodkorlik va ijrochilik maktabining o'rni va ahamiyati jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Qashqadaryo baxshichilik san'ati namoyandalari ijodi va ijro uslublari tahlili asosida o'ziga xoslikni ochib berilishi belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy ishda musiqashunoslikda shakllangan tarixiy, qiyosiy-tahliliy, ilmiy-nazariy usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z aksini topgan:

- Qashqadaryo baxshichiligida ustoz-shogird va sulolaviylik an'alarini saqlanishi (Qodir baxshi Rahimov maktabi), Dehqonobod dostonchilik maktabi vakili (Qodir baxshining shogirdi) Zulfiya baxshi xuddi erkak baxshilar singari dostonlarni bo'g'iq ovozda ijrosi badiiy madaniyatidagi o'rni va hozirgi davr

⁴ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: 1947.; Zarifov H. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar. Jangovar ot obrazining qadimiy asoslariga doir. – Toshkent: 1976.; Mirzayev T. Dostonlar / O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1990.; Saidov M. Doston / Muhammadnodir Saidov – ma'rifat fidoyisi. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2009.; Кароматов Ф., О локальных стилях узбекской народной музыки. – Москва: 1964.; Абдуллаев Р. Бытование дастанов в Узбекистане // Музыка эпоса. – Ешкар-Ола: 1989.; Адамбаева Т. Каракалпак Совет музыкасы тарийхынан. – Некис: Каракалпак, 1976. – 109 стр.; Азимова О.Н. Звуковой мир Каракалпак. – Ташкент: 2008.; Matyoqubov B. Doston navolari. – Toshkent: 2009.; Бердиханова Ш. Ритмические основы каракалпакские дастанов. Автореферат. дисс... канд. иск. – Ташкент: 2022.

jarayonida yangi doston namunalarini “Qo‘ylarni yig‘ish”, “Cho‘poncha”, “Do‘mbira kuy”larni alohida (yakka holda) ijrosiga ko‘ra ijodiy uslubi orqali ifodalanishi dalillangan;

- Sherobod-Boysun dostonchiligiga mansub Qamay dostonlaridan “Nuralining yoshligi”, “Xonimoy” dostonlarning yirik hajmli, voqeabop badiiy o‘ziga xosligi va lokal xususiyatlardan mahalliy til lahjasi, urf-odatlarini bahodirlik dostonlarini Bozor Sherqul o‘g‘li, Hazratqul Xudoyberdi o‘g‘li, Mulla Xolnazar dostonchilar ijrosi faqatgina ushbu hududga xosligi aniqlangan;

- Qashqadaryo baxshichilik san‘atida nag‘malarni notalashtirish, kompozitsion xususiyatlari bilan Qodir baxshi Rahimovning ijod merosiga bag‘ishlangan Qahhor baxshi Rahimovning “Otam haqida doston” yangi dostoni shu vohaga xos muayyan ritm va ohangdorlikka ega bo‘lish, har bir bayt yoki misra musiqa ohangiga mos keladigan tarzda tuzish kabi musiqiy tili o‘z aksini topgani isbotlangan;

- Qashqadaryo baxshichilik san‘ati nag‘ma – kuy va noma – og‘zaki bayon (she‘riy matn)ning o‘zaro mutanosibli, dutor ijrochiligi orqali matnni dramatik kuchaytirish, xalq maqollari, hikmatlar bilan boyitilgani, ritmik va kuychan uslubda ifodalanishi, ijrodagi hissiyot, dinamika va boshqa musiqiy ifoda vositalaridan foydalanishi kabi ijro texnikasi, repertuar tanlashi, avloddan avlodga o‘tishi kabi o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

- o‘zbek mumtoz musiqa san‘atining dostonchilik bo‘yicha olingan xulosalar musiqashunoslik uchun muhim nazariy-amaliy ma‘lumotlarni to‘plab, baxshichilik ijodiyoti xususiyati ochib berilgan;

- dostonchilik san‘atida bastakorlik ijodiyotining eng ko‘p uchraydigan shakl va janrlarning o‘ziga xos jihatlari baxshi noma va nag‘ma kuylarining notaga olib tahlil qilish orqali asoslab berilgan;

- o‘zbek mumtoz musiqa merosi, bastakorlik ijodiyoti negizida shakllangan doston maktablari namunalarini o‘quvchi-yoshlar orasida keng targ‘ib etishda Sherobod va Dehqonobod dostonchilik maktablari ustoz-shogird an‘anasi va shajarasi tuzib chiqilgan;

- oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida, umumta‘lim maktablarida milliy maqom san‘atini o‘rganishda qo‘shimcha adabiyot bo‘lishi, “Maqom asoslari”, “O‘zbek musiqasi tarixi”, “O‘zbek maqom san‘ati tarixi va nazariyasi” kabi fanlarga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilishida ushbu o‘rganilayotgan davr risolalaridagi milliy maqom san‘ati ilmiy-nazariy ma‘lumotlari dostonchilik yo‘nalishi uchun ham xizmat qilishini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlil etilgan manbalardan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, olingan natijalarning amaliyotda, ta‘lim jarayonida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tahsil olish jarayonida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotga

tatbiq etishni o'rganishdan iborat. Tadqiqot natijasida Qashqadaryo dostonchilik maktablari, dostonlarning kuy-nomalari va ularning tahlili bilan tanishamiz.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, "Baxshichilik san'ati" YUNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Rerezentativ ro'yxatiga kiritildi. Bu ham baxshilarning bundan buyon yanada samarali ijod qilishlariga katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Ushbu element bo'yicha nominatsion paket Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonning YUNESCO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi tomonidan tayyorlanib, 2020-yilda taqdim etilgan; ikki yil davomida YUNESCO tomonidan o'rganib chiqilib, 2021-yil 18-dekabr kuni Parijda bo'lgan yig'ilishda baxshichilik san'atini nomoddiy madaniy meros deya tan olish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'zbek baxshichilik san'atida ijrochilik xususiyatlari (Qashqadaryo baxshichilik maktabi misolida)" tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qashqadaryo baxshichiligida ustoz-shogird va sulolaviylik an'alarining saqlanishi (Qodir baxshi Rahimov maktabi), Dehqonobod dostonchilik maktabi vakili (Qodir baxshining shogirdi) Zulfiya baxshi xuddi erkak baxshilar singari dostonlarni bo'g'iq ovozda ijrosi badiiy madaniyatidagi o'rni va hozirgi davr jarayonida yangi doston namunalarini "Qo'ylarni yig'ish", "Cho'poncha", "Do'mbira kuy"larni alohida (yakka holda) ijrosiga ko'ra ijodiy uslubi orqali ifodalanishidan "Oltin voha" radiokanali orqali efirga uzatilgan "Durдона asarlar" turkum eshittirishi ssenariysida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 5-iyundagi № 17-05/92-son ma'lumotnomasi). Natijada radiotinglovchilar shu asosida dostonchilik maktablari va baxshilar haqidagi muayyan tasavvurga ega bo'lganlar;

Sherobod-Boysun dostonchiligiga mansub Qamay dostonlaridan "Nuralining yoshligi", "Xonimoy" dostonlarning yirik hajmli, voqeabop badiiy o'ziga xosligi va lokal xususiyatlardan mahalliy til lahjasi, urf-odatlar bahodirlik dostonlarini Bozor Sherqul o'g'li, Hazratqul Xudoyberdi o'g'li, Mulla Xolnazar dostonchilar ijrosi faqatgina ushbu hududga xosligidan O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi bastakorlar va musiqashunoslar shu'ba majlislarida dostonchilik maktablari va baxshilar faoliyati, ijrochilik uslublari shakllanishiga asoslangan holda foydalanilgan (O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2025-yil 13-maydagi 01-07/25-116-son ma'lumotnomasi). Pirovardida yosh bastakorlar va musiqashunoslar dostonchilik ijodiyoti haqida yanada yangi ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lgan.

Qashqadaryo baxshichilik san'atida nag'malarni notalashtirish, kompozitsion xususiyatlari bilan Qodir baxshi Rahimovning ijod merosiga bag'ishlangan Qahhor baxshi Rahimovning "Otam haqida doston" yangi dostoni shu vohaga xos muayyan ritm va ohangdorlikka ega bo'lish, har bir bayt yoki misra musiqa ohangiga mos keladigan tarzda tuzish kabi musiqiy tili o'z aksini topgani haqida 2025-yil 12-mayda Respublika baxshichilik san'ati markazida ma'ruza bilan

ishtirok etdi (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Respublika baxshichilik san’ati markazining 2025-yil 12-maydagi 05-12-227-son ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilar shu asosida Qashqadaryo baxshilarining nag‘ma va nomalarining nota tahlili haqida ma’lumotlar va muayyan tasavvurlarga ega bo‘lishgan;

Qashqadaryo baxshichilik san’ati nag‘ma – kuy va noma – og‘zaki bayon (she’riy matn)ning o‘zaro mutanosibligi, dutor ijrochiligi orqali matnni dramatik kuchaytirish, xalq maqollari, hikmatlar bilan boyitilgani, ritmik va kuychan uslubda ifodalanishi, ijrodagi hissiyot, dinamika va boshqa musiqiy ifoda vositalaridan foydalanishi kabi ijro texnikasi, repertuar tanlashi, avloddan avlodga o‘tishi kabi o‘ziga xos jihatlaridan O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi bastakorlar va musiqashunoslar shu’ba majlislarida dostonchilik maktablari va baxshilar faoliyati, ijrochilik uslublari shakllanishiga asoslangan holda foydalanilgan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2025-yil 13-maydagi 01-07/25-116-son ma’lumotnomasi). Pirovardida musiqashunoslar va yosh olimlar dostonchilarning ijro yo‘nalishlari, tili va madaniyati haqida ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lganlar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 1 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, OAK tavsiya etgan asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shu jumladan, 1 ta xorijiy, 2 ta respublika miqyosidagi jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning o‘zbek musiqa san’atshunoslik rivojidagi dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning tuzilishi va aprobatsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyada ilk bor Qashqadaryo baxshichilik maktablari va dostonlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish asosida Qashqadaryo baxshichilik maktablarining kelib chiqish tarixi tadqiq etildi, Qashqadaryoda yangi Dehqonobod baxshichilik maktabi o‘rganilib, “Otam haqida doston” nomli dostonning tahlili keltirildi va Qashqadaryo baxshilarining noma va nag‘malari yozib olinib, notaga olindi va tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy jabhalari ishning uchta bobida o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, Qashqadaryo baxshilarining

ijrochilik uslublari, do‘mbira sozi va ustoz-shogirdlik shajarasi tuzilib, baxshilarning kelib chiqishi o‘rganib chiqildi.

“O‘zbek dostonchilik ijodiyoti va uning lokal xususiyatlari” nomli birinchi bob ikki fasldan iborat.

I.1. “Janubiy O‘zbekiston vohasining ijtimoiy-madaniy muhiti: o‘tmish va zamonaviylik” nomli birinchi faslda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarining tarixi misolida baxshichilikning kelib chiqish tarixi va hududlar kesimiga doir umumnazariy muammolar ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek xalq dostonchilik ildizlari juda qadimiy davrlarga, o‘zbek tarixiga borib taqaladi. Biroq dostonchilikning qadimiy ko‘rinishlari, uni davom ettirib kelgan ko‘pdan ko‘p baxshilar haqida yozma, og‘zaki ma’lumotlar deyarli saqlanib qolmagan.

O‘zbek folklor namunalarini to‘plash va nashr etish ishlari XIX asrning II yarmidan boshlangan, ammo bu jarayon folklorshunos olimlar qarashlarida o‘z aksini topib o‘rganilib kelingan. 20-yillarning II yarmidan boshlab esa yana ham jiddiy yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir kabi atoqli dostonchilar aniqlandi. Ular ijrosida birinchi marta epik asarlar to‘la yozib olinib boshlandi (masalan, Alpomish Fozil Yo‘ldosh tomonidan 1928-yilda), xalq san’atkorlariga ijodkor sifatida qarab, ilmiy-nazariy kuzatishlar olib borildi, ammo bu ham folklorshunos olimlar tomonidan amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son farmoni, 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son, 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son, 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3990-son, 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarorlari sabab bu san’at turi musiqashunos olimlar nazariga tushdi.

Baxshichilik san’atini folklorshunos olimlar she’riy vazni va dostonlarning mazmuni jihatidan ochib bergan bo‘lsalar, bu bir yoqlama tadqiq etilgan. Baxshichilik san’atini so‘z, matn bilan birga ohang, musiqiy til, lad hamda sozning mutanosibligi birgalikda to‘ldirib turadi. Buni aynan musiqashunos olimlarimizning ilmiy tadqiqotlari orqali yoritish mumkin.

I.2. “Doston – xalq epik janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari: tarixiy takomili” nomli ikkinchi faslda dostonchilik ijodiyoti yo‘lida musiqashunos olimlarimiz va folklorshunoslarimizning olib borgan tadqiqotlari va muammolarni yoritish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi. O‘zbek dostonchiligi, uning xalq og‘zaki ijodi merosida tutgan o‘rni yuzasidan ushbu bo‘limda to‘liq tushunchaga ega bo‘lamiz. Eng muhimi, do‘mbirada ijro etiladigan va Xorazm, Farg‘ona vodiysidagi an’analarini birlashtirib turgan umumiylik, dostonchilikda she’riy va nasriy parchalar birikuvidan epik asarlar paydo bo‘lganligini anglab yetamiz.

O‘zbek dostonchiligida keng tarqalgan ijro usuli do‘mbira jo‘rligida bo‘g‘izda doston aytish hisoblanadi.

O‘zbek baxshilarini uzoq o‘tmish zamonlar bilan qandaydir janr yoki san‘at ijrosi bog‘lab turadi. Ehtimol, keyinchalik bu ijro usuli baxshilar uchun an‘ana bo‘lib qolgandir. O‘zbek dostonchiligi mif afsona – rivoyat – naql – ertak – doston bosqichlaridan iborat diffuziya harakatining so‘nggi bosqichida vujudga kelgan deb taxmin qilingan. Mana shu jarayonning muayyan bosqichida ijro usuli hozirgi baxshilarimizning doston aytishlariga to‘g‘ri keladi.

“Doston” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma‘nolarini ifodalaydi. O‘zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko‘ra, 2 xil bo‘ladi.

Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandli masnaviy – ikki misradan iborat, faqat she‘riy shaklda yaratiladi – Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Navoiyning “Hamsa” asaridagi beshta doston va hokazolar. Yozma adabiyotdagi dostonlar aruz vaznida yoziladi. Ammo Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari aruz vaznidan foydalanishmaydi. Qashqadaryoda vazn⁵ (barmoq tizimi), ya‘ni misra she‘rda tovush tuzilishini uyushtirish usuli, ya‘ni she‘r misralari umumiy bo‘g‘in soniga teng bo‘ladi. Vaznlar xususiyatiga ko‘ra, 3 xil bo‘ladi – koda, qo‘shma va erkin vaznlar. Sodda vazndagi she‘r misralarining umumiy bo‘g‘in soni teng bo‘ladi. Qo‘shma vaznda she‘rlar bandidagi misralarning biri ikkinchisidan biror bo‘g‘in ortiq yoki kam bo‘ladi. Erkin vazn vazndan vaznga o‘tib turadi. Qashqadaryoda barmoq tizimidagi vaznlar uch bo‘g‘inlidan, uchlikdan o‘n yettilikkacha vaznlar turkumi uchraydi. Binobarin yozma adabiyotdagi dostonlar yakka shaxs ijodi an‘analari asosida vujudga keladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Hasanxon”, “Ravshan”, “Dallixon”, “Qunduz va Yulduz”, “Balogardon”, “Kuntug‘mish” nomli an‘anaviy dostonlarda berilgan nasriy parchalar aksariyati romantik uslubda yozilgan bo‘lib, ularni ko‘pgina xususiyatlari o‘tmish bilan hozirgi zamonaviy realistik nasrdan ajralib turadi. Hozirgi yoki Ovro‘pa tushunchasidagi o‘zbek nasri XX asr boshlarida paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Ikkinchi tur dostonlar og‘zaki ijod mahsuli sifatida folklor an‘analarga bo‘ysungan holda yaratiladi.

Filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov⁶ ta‘rificha:

- og‘zaki ijoddagi dostonlarda she‘riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo‘lishi kerak.
- Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo‘lishi lozim (bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik musiqa asari bo‘lishi shart emas) degan fikrni bildiradi.

⁵ Vazn – arabchadan olingan bo‘lib, “o‘lchov” degan ma‘noni bildiradi.

⁶ Saidov M. Doston / Muhammadnodir Saidov – ma‘tifaf fidoyisi. – Toshkent: 2009.

- Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do‘mbira cherta bilishi yoki qo‘biz chala bilishi zarur.
- To‘rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va qo‘shiq aytish mahoratini egallagan bo‘lishi zarur.

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor R.S.Abdullayevning “O‘zbek mumtoz musiqasi”⁷ nomli o‘quv qo‘llanmasida quyidagicha keladi: “Doston – o‘zbek mumtoz musiqasining yirik epik janri bo‘lib, o‘ziga xos mavqeyi, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir, ko‘pincha nasr (so‘z) bilan, lirik kechinmalar she‘r va musiqa orqali ifodalanadi”.

Tadqiqot jarayonida dostonchilik ijodiyoti o‘rganish natijasidan kelib chiqqan holda dostonlarni o‘z mohiyatiga ko‘ra, quyidagi janrlarga tasnifladik:

- qahramonlik (“Alpomish”);
- sarguzasht-detektiv (“Sabbai Sayyor”);
- ishqiy-romantik (“Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”);
- jangnoma (“Yusuf va Ahmad”, “Saddi Isandariy”);
- tarixiy-memuar (“Shayboniynoma”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”);
- falsafiy (“Hayrat ul-abror”);
- tarbiyaviy (“Qutadg‘u bilig”).

O‘zbek dostonchilik ijodi dastlab Turkiston o‘lkasi, so‘ng amirliklar, ya‘ni Qo‘qon xonligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligida saroyda shakllangan. Qashqadaryo va Surxondaryo, hatto Samarqand ham Buxoro amirligi tasarrufida bo‘lgan. Shuning uchun Sherobod dostonchilik maktabi vakillari Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilarini jamlab olgan. Bu ikki viloyat Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo‘lib ajralib chiqdi. Ammo uslub bitta, ijrochilik an‘analari bitta, farqi shevasida va baxshilarning o‘z uslublariadir.

Dostonchilik ijodiyotida Janubiy hudud dostonchilik san‘atiga Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, shimoliy hudud dostonchilik san‘atiga esa Xorazm va Qoraqalpoq dostonchilik maktablari kiradi. Ushbu bo‘limda o‘zbek dostonchiligi va Qashqadaryo vohasining tarixiy kelib chiqishi hududlar kesimida ko‘rib chiqilgan.

Baxshichilik san‘ati bir necha asrlik tajribaga ega ekanligi bilan boshqa ijrolardan ajralib turadi.

O‘zbek dostonchiligida doston kuylash an‘anasini to‘rt yo‘nalishda bo‘lib o‘rganib chiqamiz.

- Birinchidan, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida (Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Narpay) do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iq ovoz bilan ijro etilgan.

⁷ Abdullayev R.S. O‘zbek mumtoz musiqasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2008.

- Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, g'ijjak, garmon, bulamon, qo'shnay, doira jo'rligida ba'zan yakka, ba'zan juft holda ochiq ovoz bilan ijro etilgan.
- Uchinchidan, Farg'ona vodiysida dutor jo'rligida ochiq ovozda aytilgan.
- To'rtinchidan, qoraqalpoq (jirovlar, baxshilar, qissaxonlar) dostonlari qo'biz jo'rligida ijro etganlar.

Qashqadaryo vohasi dostonlarini o'rganish tajribasi har bir baxshi ijodiga alohida-alohida yondashish lozimligini tasdiqlaydi. Doston ijrosi qaysi an'ana, qaysi maktabga taalluqli ekanidan qat'i nazar doston ijrosiga bo'lgan munosabatni baxshining mahorati, sozandalik darajasi, aktyorligi, ovozi belgilaydi.

Ikkinchi bob “Qashqadaryo baxshichilik san’ati” deb nomlangan bo'lib, ikki faslni o'z ichiga qamrab olgan.

II.1. “Qashqadaryo vohasida baxshichilik san’ati shakllanishi va o‘ziga xos maktabni yuzaga kelishi”da asosan Sherobod dostonchilik maktabi faoliyati baxshilari, ijro uslubi va repertuarlari haqida so'z boradi. Qashqadaryo baxshilarini o'rganishga dastlab XX asrning 20-yillari oxiridan kirishilgan bo'lsa-da, muntazam holda 50-yillar oxiridan o'rganila boshlandi. Shunda ham olimlar asosan vaqt bilan hisoblashgan holda mashhurroq baxshilardan asosan mashhur dostonlarni yozib olishga intildilar. Mashhurlik esa baxshi sozi, so'zi, ovozining shiradorligi va badihago'yiligi bilan xalq tomonidan belgilanadi.

Dostonchilik san'atining tarixiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos ijrochilik maktablari saqlanib kelgan. Har bir maktab dostonlar mavzusi va ijro uslubi, ijrochilar tarkibi va namoyandalari bilan ajralib turadi. O'zbekistonda Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud; har biri ijro uslubi va musiqasi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu bobning bo'limida janubiy hududning o'tmishdan to bugungi kunga qadar faoliyat olib borgan dostonchilik maktablari yoritilgan.

Dostonlarni o'rganar ekanmiz, ularni 2 guruhga bo'lamiz, bular:

- avtobiografik – bunda baxshi o'z boshidan kechirganlarini kuyga solib doston shaklida ijro qiladi;
- biografik – baxshi boshqa shaxs nomidan yoki bir voqeani ijro etadi.

Dostonchilik san'atining tarixiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos ijrochilik maktablari shakllanib kelgan. Har bir maktab dostonlar mavzusi va ijro uslubi, ijrochilar tarkibi va namoyandalari bilan ajralib turadi. O'zbekistonda Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo hamda Xorazm va qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud; har biri musiqiy poetikasi va ijro uslubi bilan ajralib turadi.

Ammo hozirgi kunga kelib ko'pgina dostonchilik maktablari yo'q bo'lib ketgan. Hozirda Sherobod dostonchilik maktabi va undan ajralib chiqqan eng yosh maktab – Dehqonobod dostonchilik maktabi baxshi san'ati an'alarini davom ettirib, o'zlarining yangi vakillariga repertuarlaridagi dostonlarini o'rgatib, dostonchilik maktabi an'alarini davom ettirib kelmoqdalar.

Sherobod dostonchilik maktabi vakillaridan XX asrning 40-yillarida yozib olingan dostonlarda dostonchilikning nisbatan quyi bosqich unsurlari, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan shakllari uchraydi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab esa an'analarning muayyanlasha borishi, ma'lum ma'noda kitobiylikka intilish kuchayadi. Bunda iste'dodli xalq baxshisi Qodir Rahim o'g'lining (1936–85) xizmatlari katta bo'ldi. Sherobod dostonchilik maktabidan Qosimko'r, Sherna Beknazar o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamadrayim baxshi, Yusuf O'tagan o'g'li, Yoshqobil baxshi, Bo'riboy Ahmedov, Qodir Rahim o'g'li kabi o'nlab dostonchilar yetishib chiqdi.

Mazkur bobning II.2. bo'limi **“Qashqadaryo baxshichilik san'ati: ijod va ijro xususiyatlari”** deya nomlanib, Qashqadaryo, Dehqonobod, Yakkabog', Qamashi, Chiroqchi, G'uzor, Nishon va boshqa joylardagi o'ziga xos baxshi ijro yo'llari, ko'pgina xalq dostonlari terminlari do'mbira cholg'usi jo'rligida ijro etilishi va Sherobod dostonchilik maktabi shajarasi ko'rib chiqiladi.

Qashqadaryo va Surxondaryo baxshi ijrolari ham o'ziga xos ijro yo'llari hisoblanadi.

Ijod inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faolligi hamda butun bilim va tajribasi, iste'dodining namoyon bo'lishidir. Doston va termalar baxshi tasavvurida tug'iladi, keyin badihaga mos ravishda kuy ijro etiladi.

Odatda baxshi “ijrochilik” – musiqiy namuna talqini bilan bog'liq bir qator ichki xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Iste'dod, bilim har tomonlama mukammal ovoz, sozandalik san'ati va badihago'ylik mahorati, ijodiy yondashish, to'g'ri so'z talaffuzi, izlanish va doimiy mashq kabi xususiyatlar va sifatlar shular jumlasidandir. Shu xususiyatlarga ega bo'lgan ijrochi ustozona baxshi bo'lib mukammal talqin namunalariga erishadi. Ijrochi uchun iste'dod musiqani qalban his etib, mazmunan ifoda etish bo'lsa, bilim va badihago'ylik shu iste'dodni musiqa ilmi (musiqiy namunalar, janrlar, metroritmik jihatlar, ijro texnikasi, ijrochilik mahoratlari) bilan sug'orishdir.

Dostonchilik ijodini shartli ravishda ikkiga – badihaviy ijod va cholg'u kuy ijodiga bo'lish mumkin. Ba'zi baxshilarda har ikki ijod rivojlangan bo'lishi mumkin. Buning uchun ijodkor erkin xayol, ozod tafakkur, keng ko'lamlil tasavvur, milliy g'urur va yuksak orzularga ega bo'lishi kerak.

Qashqadaryo baxshilari o'z kuylarini nag'ma deb ataydilar. Qozoq jirovlari ijodidagi “nomad”, qadimgi yunonlardagi “nom” (kuylarni asosini tashkil qiluvchi ohang) tushunchalari ham huddi shunday mazmunda keladi.

Doston kuy-nomalarini baxshilarning o'zlari quyidagicha ta'riflaydilar. Qamay maktabi namoyandasi Qahhor baxshi Rahimov dostonlarda ishlatiladigan cholg'u kuylar ba'zida baxshi kuy, do'mbira kuy, ko'pincha o'z nomlari bilan “Cho'poninoma”, “Ot haydash nomasi”, “Nomaboshi” deb yuritilishini va agar bu kuylar doston so'zlariga solib o'qilsa, nomalar deyilishini ta'kidlaydi⁸.

⁸ Matyoqubov B. Dostonlarning musiqiy xususiyatlarini o'rganish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2023.

Qashqadaryo baxshilarining o‘zlari yaratgan nag‘ma va noma kuylarini nota namunalari va tahlili bilan ushbu bo‘limda tanishib chiqamiz.

Bulardan biri – Qashqadaryo baxshilarining **“G‘aribnoma”** nomli nomasi. Bu nomani baxshilar har xil talqin qilishgan. Bu **“G‘aribnoma”** nag‘masi doston qahramonlarining juda tushkun vaqtlarida yaralanganida yoki otidan, elidan ayrilgan g‘arib bo‘lib qolgan vaqtida ijro etiladigan cholg‘u kuyidir.

